

SHARQ RECESSANSINING YIRIK NAMOYANDASI MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMYI MEROSI

Axmatova Dilnoza Dilshod qizi

Buxoro davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17249103>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq renessansining buyuk vakili Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy merosi tahlil qilinadi. Unda olimning astronomiya, matematika va ta‘lim sohasidagi beqiyos xizmatlari, Samarqand rasadxonasi va “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining jahon ilm-faniga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Ulug‘bek ilmiy maktabining ahamiyati va uning keyingi avlod olimlari faoliyatiga ko‘rsatgan ta‘siri ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek, Sharq renessansi, astronomiya, matematika, rasadxona, ilmiy meros.

Аннотация. В данной статье рассматриваются жизнь и научное наследие Мира Улугбека – выдающегося представителя Восточного Ренессанса. Анализируются его достижения в области астрономии, математики и образования, вклад Самаркандской обсерватории и труда «Зидж-и Джадид-и Курагони» в мировую науку. Отмечается значение научной школы Улугбека и её влияние на деятельность последующих поколений учёных.

Ключевые слова: Улугбек, Восточный Ренессанс, астрономия, математика, обсерватория, научное наследие.

Abstract. This article explores the life and scientific legacy of Mirzo Ulugh Beg, a prominent figure of the Eastern Renaissance. It highlights his outstanding contributions to astronomy, mathematics, and education, as well as the global significance of the Samarkand observatory and his work *Zij-i Jadid-i Kuragoni*. The importance of Ulugh Beg’s scientific school and its influence on subsequent generations of scholars is also emphasized.

Keywords: Ulugh Beg, Eastern Renaissance, astronomy, mathematics, observatory, scientific legacy.

Sharq renessansi davri insoniyat tafakkuri tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyatning yangi bosqichga ko‘tarilishi Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Ayniqsa, Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, olimlar va davlat arboblari jahon ilm-faniga beqiyos hissa qo‘shdilar. Buyuk astronomik olim, mutafakkir, temuriylar sulolasi vakili Ulug‘bek, asl ismi Mirzo Muhammad Tarag‘ay, 1394- yil 22- mart Samarqandda tug‘ilgan. U temuriylar sulolasining mashhur hukmdori Amir Temurning suyuqli nabirasi bo‘lib, sohibqiron uning tarbiyasini katta rafiqasi Saroymulxonimga topshiradi va shundan keyingi 11 yillik tarbiya natijasida Ulug‘bek buyuk inson bo‘lib shakllanadi.

1409- yil temuriyzoda Shoxrux o‘g‘li Ulug‘bekni Samarqand hokimi etib tayinlaydi va 1411- yildan boshlab esa Mirzo Ulug‘bek butun Movarounnahr boshqaruvini qo‘lga olib, Samarqandni ilm-fan markaziga aylantiradi va uning eng katta yutug‘i ham Samarqandda barpo etgan ulkan astronomik observatoriya edi. U 1420- yilda qurilgan bo‘lib, bu yerda yulduzlarning harakatlarini kuzatish uchun zarur bo‘lgan asboblarni ishlab chiqilgan. Observatoriyada Ulug‘bek va

uning shogirdlari 1018 ta yulduzning aniq koordinatalarini hisoblab chiqqanlar . Bu izlanishlar natijasida Ulug‘bek 1437- yilda " Ziji jadidi Ko‘ragoniy" asarini yozadi.Mutaxassislarining ta‘limotiga ko‘ra , ushbu yulduzlar jadvali grek olimlaridan miloddan avvalgi II asrda yashagan Gipparx va milodiy I - II asrlarda ijod qilgan Ptolomey tuzgan jadvallardan keyingi davrda yaratilgan eng aniq va shaffof astronomik manba hisoblanadi .Uning bu tadqiqotlari matematikaning rivojiga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Mirzo Ulug‘bek " Ulug‘bek rasadxonasi" dagi ilmiy kuzatishlari natijasida " Tarixi arba‘ ulus" (To‘rt ulus tarixi) nomli mashhur asarini yozgan.Bu kitobda Odam Ayolning yaratilishi va turklarning afsonaviy ota-bobolari hisoblangan Yusuf ibn Nuh va uning farzandi Turkxon, shuningdek , turk- mo‘g‘ul qabilalari va Chingizxon tarixi batafsil bayon etilgan .Ushbu kitob Ulug‘bek iste‘dodining yana bir qirrasini tarixchilik sohasidagi faoliyatining mahsulidir.Uni mutolaa qilganlar nafaqat yetti ajdodini , balki butun shajarasini bilib olsa ajab emas .Chunki asarda "o‘zbek" etnonimining kelib chiqish vaqti xususida qimmatli ma‘lumotlar uchraydi va kitobning faqat qisqartirilgan tahrirdagi 4 ta qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelgan.

Ulug‘bek faqatgina astronomiya va matematika bilan cheklanmagan , adabiyot va san‘atga ham o‘z hissasini qo‘shgan. U o‘z saroyida olimlar, shoirlar va san‘atkorlarni to‘plagan.Ulug‘bekning saroyida faoliyat yuritgan mashhur shoirlardan biri - Navoiydir .Ulug‘bekning ilm- fanga bo‘lgan qiziqishi uning nomini tarixda abadiy qoldirdi va nomi dunyo fani sahifalariga zarhal harflar bilan bitildi.

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek yulduzlar ilmining sultoni edi .Buyuk munajjimga cheksiz hurmat hosilasi sifatida yurtimizning bir qancha shaharlarida haykallar qad ko‘tardi va shu bilan birga uning ilmiy va madaniy merosi nafaqat O‘zbekistonda , balki chet mamlakatlarda ham haligacha o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.Mirzo Ulug‘bek kelgusi avlod vakillari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi desak , shubhasiz, yanglishmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov, Y., To‘rsanov, Q., Adizov, B., Sharipova, M., Hojiyeva, N., & Rajabova, G. Z. (2024). Statistical analysis of thrift and ecological education concepts in elementary school students. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 02020). EDP Sciences.
2. Sharipova, M. (2024, May). O‘TKIR HOSHIMOVNING «IKKI ESHIK ORASI» ROMANIDA PERSONAJ RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI VOSITALAR TAHLILI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 3-7).
3. Шарипова, М. Б. (2024, February). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC E-CONFERENCE "PROBLEMS AND PROSPECTS OF DIGITAL TRANSFORMATION ECONOMIES IN THE CONDITIONS OF DEEPENING INTEGRATION PROCESSES OF DEVELOPING COUNTRIES"*- *Kraków, Poland* (Vol. 1, pp. 54-57).
4. Sharipova, M. (2020). O‘quvchi yoshlar tarbiyasida o‘lmas an‘ana va marosimlarning ahamiyati. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

5. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. *Scientific progress*, 2(7), 1102-1108.
6. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
7. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1120-1124.
8. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. *Scientific progress*, 2(7), 1135-1138.
9. Шарипова, М. Б., & Ньматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. *Вестник магистратуры*, (3-3 (102)), 113-114.
10. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
11. MA'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloeyevna BuxDU. *Maktabgacha ta'lim*.
12. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI–BADIY BARKAMOL ASAR. *Scientific progress*, 2(7), 1145-1148.
13. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
14. Шарипова, М. Б., & Хусаинова, З. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 106-108.
15. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
16. Sharipova, M. (2024). Historical-Vital Bases of Epos And Ritual Expression (In The Example of the Epic "Alpomish"). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 46(46).
17. Sharipova, M. B., & G'afurova, A. A. (2024). METHODOLOGY OF STAGING IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 3(1), 21-29.
18. Sharipova, M. (2023). O 'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA'LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).